

O'rmon boyqushlari



Qog'oz – darslarimizda eng yaqin ko'makchimiz. U juda qadimiy ixtiro ekanligini bilarmidingiz? Qog'oz paydo bo'lgunga qadar odamlar loy, yog'och, mato va papirusga* yozishgan.

Afsonalarga ko'ra, ilk haqiqiy qog'ozni bundan deyarli ikki ming yil avval xitoylik usta **Say Lun** yaratgan. U tut daraxti tolalari, kul, daraxt po'stlog'i va suvni aralashtirib, yog'och qolipga quygan, so'ng quritib, tekislagan. Natijada yupqa qog'oz varag'i hosil bo'lgan.



Bugun biz ham rangli qog'ozlardan **O'rmon boyqushlari** nomli ajoyib kuzgi manzarani yaratamiz.

Sizga kerak bo'ladi:



- ko'k rangli karton;
- rangli qog'oz;
- qaychi va yelim;
- qalam va flomasterlar.


Ish rejasi:

1. Rangli qog'ozdan **ikkita aylana** qirqib oling: biri sariq, ikkinchisi to'q sariq rangda bo'lsin. Ushbu aylanalarni namunadagidek buklab, **boyqush shakllarini** yasang.
2. **Ko'zlari, tumshug'i** va **oyoqchalarini** yopishtiring. Patlarini bezang va boshqa mayda detallarni qo'shing.
3. Ko'k rangli qog'ozga **daraxtning** qora yoki jigarrang **shoxlarini** chizing yoki yopishtiring.
4. Tayyor **boyqushlarni** shoxlarga **yopishtiring**. Yorqin kuz manzarasi hosil bo'lishi uchun rang-barang barglar ham qo'shing.

***papirus** – qadimiy qog'oz



O'rmon boyqushlari



1



2



3



4



5



6



7